



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	163
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....	167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ	172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи	
SANOAT KLASSTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI	178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....	188
Babadjanov Akmal Shuxratovich	
ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI.....	193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI	198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li	
TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	202
Kilichov Nazar Bafoevich	



TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	208
Yusupova I.R.	
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIIQTISODIY SALOHİYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА	222
Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOYILLARINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI	227
Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi	
TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	233
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
EKOLOGIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR TARKIBI	240
Majidova Shaxnoza Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR.....	244
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
AGROTADBIRKORLIKDA OMILLAR SARFI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINING OSHISHIGA TA'SIRINI HUDUDIY BAHOLASH.....	248
Qurbonov Alisher Boboqulovich	
ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF INTERNAL STANDARDS IN AUDIT FIRMS OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON THE QUALITY OF AUDIT SERVICES	256
Kamola Bobonarova	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONA MENEJMENTIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	262
Zohidov Jamshid Botirxonovich	
SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	267
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI VA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	272
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
MILLIY HUNARMANDCHILIK SOHASINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHNING INTEGRAL BOSHQARUV MODELI VA UNI BAHOLASH	279
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL.....	288
H.S. Bobojonov	
OLIY TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING USLUBIY ASOSLARI.....	294
Mamanazarov A.A.	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINI BOSHQARISH VA ISHLAB CHIQRISH XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHLATLARI.....	299
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
BIOLOGIK AKTIVLAR SINTETIK VA ANALITIK HISOBINI TASHKIL ETISHDA ISHCHI HISOBVARAQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	308
Axmetova Salima Seytovna	



HUDUD IQTISODIYOTIGA “YASHIL INVESTITSİYALAR”NI JALB QILISH MEXANIZMLARINING USLUBIY JIHATLARI.....	313
To‘xtayev Maqsud Mansurovich	
TURIZM SOXASIDA XIZMATLAR SIFATIGA TA’SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	321
Suyunov R.G’.	
SOLIQ MA’MURCHILIGI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	326
Turdaliyev Eldor Sho‘xratjon o‘g‘li	
AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RAQAMLI BOSHQARUV MEXANIZMLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH.....	334
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA KUZATUVLARNING O‘RNI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	340
Siroj Zarina Rustambekovna	
MECHANISMS FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF USING ISLAMIC FINANCE INSTRUMENTS IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN.....	347
Toshxo‘jayev Abduqodirxon Abdulmanurxon ugli	
KORPORATIV BOSHQARUVNING IQTISODIY MAZMUNI VA QURILISH KORXONALARI FAOLIYATIDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI	354
G‘iyosov Ilxom Karimovich	
FORECASTING OF AGRICULTURAL PRODUCTION INDICATORS IN SURKHANDARYA REGION USING THE ARIMA MODEL.....	361
Abdurayimov Kamoliddin Khurram oglu	
BARQAROR HOSILDORLIKNI TA’MINLASHNING IQTISODIY YONDASHUVLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	369
Turayeva Gulizahro	
INNOVATSION EKOTIZIMDA FAN-TA’LIM-ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINING IQTISODIY JIHATLARI	374
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich	
INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL INDEKSINI SHAKLLANTIRISH VA UNING HUDUDIY IQTISODIY O‘SISHNI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI.....	378
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
OHAK TOSH QAZIB OLISH JARAYONIDA ATROF MUHITDAGI ZARARI VA OLDINI OLISH.....	386
Kaxorov Ulug‘bek	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARIDA MOLIVAVIY RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO YONDASHUVLAR (2019-2025 YILLAR)	389
Abdukarimov Akbar G‘anisherovich	



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARIDA MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO YONDASHUVLAR (2019-2025 YILLAR)



Abdulkarimov Akbar G'aniSherovich
Yangi O'zbekiston universiteti magistranti
ORCID: 0009-0001-8068-2077

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida 2019-2025-yillarda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarida moliyaviy risklarni baholash va boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlar tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi — mamlakat amaliyotini xalqaro yondashuvlar bilan qiyoslash va risk-menejment tizimini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqot sifatli yondashuv asosida rasmiy hujjatlar, XVF, Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi hisobotlari hamda yetakchi ilmiy nashrlarning kontent-tahlili asosida amalga oshirildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, energetika loyihalarida risklarni taqsimlash xalqaro amaliyotga muvofiq amalga oshirilmoqda. Biroq loyiha darajasida fiskal risklar va shartli majburiyatlarni miqdoriy baholashning yagona, majburiy metodologiyasi hali shakllanish bosqichida. Tadqiqotning ilmiy yangiligi energetika sohasidagi risklarni taqsimlash amaliyotini umumlashtirgan matritsa taklif etilgani hamda PFRAM modelini milliy darajada joriy etish mexanizmi asoslanganidir. Tahlil asosida risk-menejment tizimini takomillashtirishga oid to'rtta tavsiya ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, moliyaviy risk, risklarni taqsimlash, shartli majburiyat, fiskal barqarorlik, loyihaviy moliya, PFRAM, infratuzilma, O'zbekiston.

Аннотация. В статье проанализированы теоретические и практические аспекты оценки и управления финансовыми рисками в проектах государственно-частного партнерства (ГЧП) в Республике Узбекистан за период 2019–2025 годов. Цель исследования — сопоставить национальную практику с международными подходами и разработать рекомендации по совершенствованию системы риск-менеджмента. Исследование выполнено на основе качественного подхода с использованием контент-анализа официальных документов, отчетов МВФ, Всемирного банка, Международной финансовой корпорации и ведущих научных публикаций. Результаты показывают, что распределение рисков в энергетических проектах в целом соответствует международной практике. Вместе с тем единая обязательная методология количественной оценки фискальных рисков и условных обязательств на уровне проектов все еще находится на стадии формирования. Научная новизна исследования заключается в разработке матрицы распределения рисков для энергетических проектов и обосновании механизма внедрения модели PFRAM на национальном уровне. По результатам анализа предложены четыре рекомендации по совершенствованию системы риск-менеджмента.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство, финансовый риск, распределение рисков, условные обязательства, фискальная устойчивость, проектное финансирование, PFRAM, инфраструктура, Узбекистан.



Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of assessing and managing financial risks in Public-Private Partnership (PPP) projects in the Republic of Uzbekistan during the period 2019–2025. The study aims to compare national practices with international approaches and develop recommendations for improving the risk management system. The research employs a qualitative approach based on content analysis of official documents, reports of the International Monetary Fund (IMF), the World Bank, the International Finance Corporation (IFC), and leading academic publications. The findings indicate that risk allocation in energy sector projects is generally consistent with international practice. However, a unified and mandatory methodology for the quantitative assessment of fiscal risks and contingent liabilities at the project level is still under development. The scientific novelty of the study lies in proposing a generalized risk allocation matrix for energy projects and substantiating a mechanism for implementing the PFRAM model at the national level. Based on the analysis, four recommendations are proposed to improve the financial risk management system.

Keywords: Public-Private Partnership (PPP), financial risk, risk allocation, contingent liabilities, fiscal sustainability, project finance, PFRAM, infrastructure, Uzbekistan.

KIRISH

Infratuzilma iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lib, uni faqat davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish ko'plab rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham yetarli emas. Shu sababli xususiy kapital, tajriba va innovatsiyalarni jalb etish vositasi sifatida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi qo'llanila boshlandi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, DXSh loyihalari hajmining tez o'sishi davlat zimmasiga uzoq muddatli shartli majburiyatlar yuklaydi va ularni tizimli baholash zarurati kuchaymoqda.

O'zbekistonda DXSh tizimli ravishda 2016-yildan keyingi islohotlar davrida joriy etildi. 2019-yil 10-mayda qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son Qonun mamlakatda ushbu sohani tartibga soluvchi birinchi maxsus huquqiy hujjat bo'ldi; u shartnomalarni 3 yildan 49 yilgacha tuzishni, maxsus loyiha kompaniyasi (SPV) institutini va tomonlar majburiyatlarini belgilab berdi [1]. 2021-yilda Qonun takomillashtirildi. Hozirgi kunda DXSh loyihalari reyestrda 900 dan ortiq loyiha qayd etilgan [2].

Tadqiqotning obyekti — O'zbekiston Respublikasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalari. Predmeti — ushbu loyihalarda moliyaviy risklarni baholash va boshqarish bo'yicha yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar. Maqsadi — O'zbekistonda DXSh loyihalarida moliyaviy risklarni baholash va boshqarish amaliyotini xalqaro yondashuvlar bilan qiyoslab tahlil qilish hamda risk-menejment tizimini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish. Vazifalari: (a) risklarni taqsimlash amaliyotini umumlashtirish; (b) fiskal risklar va shartli majburiyatlarni hisobga olish holatini baholash; (c) xalqaro baholash vositalarini milliy amaliyotga moslashtirish yo'llarini asoslash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

DXSh loyihalarida risklarni boshqarish masalasi xorijiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. D. Grimsey va M. Lewis infratuzilma loyihalarida risklarni baholashning asosiy tamoyili — har bir riskni uni eng samarali boshqara oladigan tomonga yuklash ekanligini asoslab bergan [3]. R. Osei-Kyei va A. Chan 1990–2013-yillardagi tadqiqotlarni umumlashtirib, risklarni oqilona taqsimlash DXSh loyihalari muvaffaqiyatining eng ko'p qayd etilgan omillaridan biri ekanligini ko'rsatgan [12]. H. Polackova esa davlat kafolatlarini "yashirin fiskal risk" sifatida tavsiflab, shartli majburiyatlar byudjet barqarorligiga tahdid solishi mumkinligini isbotlagan [6].

Amaliy-uslubiy yo'nalishda Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan PFRAM modeli loyihaning byudjetga ta'sirini miqdoriy baholash imkonini beradi [9]. Umumiy uslubiy baza sifatida ISO 31000:2018 standarti [10] va Jahon bankining "PPP Risk Allocation Tool" vositasi [11] qo'llaniladi. Mahalliy adabiyotlarda esa DXShning huquqiy-institutsional jihatlari nisbatan yaxshi yoritilgan bo'lsa-da, loyiha darajasidagi fiskal risklarni miqdoriy baholashga bag'ishlangan tadqiqotlar cheklangan. Mazkur maqolaning mavjud ishlardan farqi shundaki, unda energetika sohasidagi amaliy risk-taqsimoti umumlashtirilgan matritsa shaklida tizimlashtiriladi va milliy metodologiyani shakllantirishning aniq mexanizmi taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot sifatii (kvalitativ) yondashuvda, tavsifiy-analitik xususiyatga ega bo'lib, uchta usulga asoslanadi. Birinchidan, kontent-tahlil usuli orqali DXSh va davlat qarzi to'g'risidagi qonunchilik [1; 8], XVFning 2024-yilgi IV moddaviy maslahatlashuv hisoboti [7], Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining loyiha hujjatlari [4; 5]



hamda PFRAM modeli qo'llanmasi [9] o'rganildi; ulardan risklarni taqsimlash va shartli majburiyatlarni hisobga olishga oid bandlar ajratib olindi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil usuli qo'llanilib, O'zbekiston amaliyoti xalqaro standartlar — ISO 31000:2018 [10] va Jahon bankining risklarni taqsimlash vositasi [11] mezonlari bo'yicha solishtirildi. Uchinchidan, keys-tahlil usuli orqali energetika sohasidagi yirik DXSh loyihalari (Navoiy, Samarqand, Jizzax, Buxoro) misolida risklarni taqsimlash mexanizmlari ko'rib chiqildi va natijalar 1-jadval shaklida umumlashtirildi. Tadqiqot faqat rasmiy va ilmiy jihatdan ishonchli manbalarga tayanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda DXSh, ayniqsa energetika sohasida, sezilarli amaliy natijalarga erishdi. Quyida moliyaviy risklarni boshqarish nuqtai nazaridan asosiy yo'nalishlar tahlil qilinadi.

Risklarni taqsimlash amaliyoti

Xalqaro nazariyaning markaziy tamoyili — har bir riskni uni eng yaxshi boshqara oladigan tomonga yuklashdir [3]. O'zbekiston energetika loyihalarida bu tamoyil amalda qo'llanilmoqda: Navoiydagi 100 MVt quvvatli quyosh elektr stansiyasi (2021-yildan ishlamoqda) raqobatli tender orqali tanlangan; qurilish va ekspluatatsiya risklari xususiy investorga, talab hamda to'lov riski esa "Milliy elektr tarmoqlari" AJ bilan tuzilgan 25 yillik PPA va Jahon banki to'lov kafolatlari orqali davlat tomonidan qoplangan [4]. Keyinchalik Samarqand va Jizzaxda 440 MVt quvvatli quyosh elektr stansiyalari, Buxoroda quyosh elektr stansiyasi va akkumulyatorli energiya saqlash tizimi (BESS), shuningdek, 500 MVt quvvatli shamol elektr stansiyalari shu model asosida amalga oshirildi [5].

Ushbu loyihalar tahlili asosida risklarni taqsimlashning umumlashtirilgan matritsasi shakllantirildi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston energetika sohasidagi DXSh loyihalarida risklarni taqsimlash matritsasi

Risk turi	Kim zimmasiga yuklanadi	Yumshatish mexanizmi
Qurilish (construction) riski	Xususiy investor / SPV	EPC shartnoma, kafolat depoziti
Ekspluatatsiya va texnik risk	Xususiy investor / SPV	O&M shartnoma, ishlash kafolati
Talab va to'lov riski	Davlat ("Milliy elektr tarmoqlari" AJ)	25 yillik PPA, Jahon banki to'lov kafolati
Valyuta (kurs) riski	Asosan davlat	Tarifni indeksatsiya qilish, xejlash
Tartibga solish va siyosiy risk	Davlat	Qonunchilik kafolatlari, xalqaro arbitraj
Fors-major	Taqsimlangan (shared)	Sug'urta, shartnomaviy bandlar

Manba: muallif tomonidan [1; 4; 5; 11] manbalari asosida tuzilgan.

Valyuta riski

PPA shartnomalari ko'pincha AQSh dollarida tuzilgani sababli, milliy valyutaning qadrsizlanishi davlat zimmasidagi to'lov majburiyatlarini oshiruvchi valyuta riskini keltirib chiqaradi. Bu O'zbekiston uchun ayniqsa muhim, chunki energiya tarifi davlat zimmasidagi uzoq muddatli majburiyatga aylanadi.

Fiskal risklar va shartli majburiyatlar

Nazariy jihatdan davlat kafolatlari, ayniqsa minimal daromad kafolatlari (MRG), "shartli majburiyat" hisoblanadi va noaniq hodisa yuz berganda byudjet xarajatiga aylanadi [6]. XVFning 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda davlat qarzining barqarorligi "past risk" deb baholangan: 2023-yilda davlat va davlat kafolatidagi tashqi qarz YalMning taxminan 34 foizini, umumiy tashqi qarz esa qariyb 60 foizini tashkil etgan [7]. 2023-yilgi davlat qarzi to'g'risidagi Qonun umumiy davlat va davlat kafolatidagi qarz uchun YalMga nisbatan 60 foiz chegara hamda DXSh kafolatlariga limit o'rnatishni nazarda tutadi [8].

Xalqaro baholash vositalari

Fiskal risklarni miqdoriy baholash uchun XVF va Jahon banki PFRAM (PPP Fiscal Risk Assessment Model) modelini ishlab chiqqan bo'lib, u loyiha byudjet taqchilligiga, davlat qarzig va shartli majburiyatlarga ta'sirini baholaydi [9]. Risk-menejmentning umumiy uslubiy bazasini ISO 31000:2018 standarti [10] hamda Jahon bankining 18 turdagi loyiha bo'yicha risklarni taqsimlash matritsalarini taqdim etuvchi "PPP Risk Allocation Tool" vositasi [11] tashkil etadi.



O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston energetika loyihalarida risklarni taqsimlash xalqaro ilmiy adabiyot tavsiyalariga mos keladi. "Risklarni optimal taqsimlash — muvaffaqiyat omili" tezisi amaliyotda o'z tasdig'ini topadi: aynan standartlashtirilgan tender va aniq risk-taqsimoti tufayli ushbu loyihalarda mintaqadagi eng past tariflardan biri qayd etilgan [12].

Shu bilan birga, O'zbekiston amaliyotining o'ziga xosligi shundaki, risklarni samarali boshqarish hozircha, asosan, ayrim sohalarda (birinchi navbatda energetikada) va xalqaro moliya institutlari ko'magida rivojlangan. Loyiha darajasidagi risklarni miqdoriy baholashning yagona milliy metodologiyasi esa hali shakllanish bosqichida. Bu "yashirin fiskal risk" muammosini dolzarb qiladi: davlat kafolatlari va valyuta riski bo'yicha majburiyatlar to'liq va shaffof hisobga olinmasa, ular kelajakda kutilmagan byudjet xarajatlariga aylanishi mumkin [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, O'zbekistonda 2019-yildan boshlab DXShning huquqiy asosi shakllantirilgan va energetika sohasida risklarni taqsimlash xalqaro amaliyotga muvofiq amalga oshirilmoqda. Ikkinchidan, valyuta riski va davlat kafolatlari bo'yicha shartli majburiyatlar uzoq muddatli fiskal bosim manbai bo'lib qolmoqda. Uchinchidan, loyiha darajasida fiskal risklarni miqdoriy baholashning majburiy milliy metodologiyasi mavjud emas.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi: 1) har bir yirik DXSh loyihasi uchun PFRAM modeli asosida fiskal risk va shartli majburiyatlarni majburiy miqdoriy baholashni joriy etish [9]; 2) sohalar kesimida tipovoy risk-taqsimlash matritsalarini ishlab chiqish va ularni tender hujjatlariga integratsiya qilish [11]; 3) shartli majburiyatlarni IPSAS 19 xalqaro hisob standarti talablariga muvofiq alohida hisobga olish va davriy ravishda nashr etish; 4) vazirlik va buyurtmachi tashkilotlarda loyihaviy moliya hamda risk-menejment bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish. Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish DXSh loyihalarining fiskal barqarorligini oshirishga va investorlar uchun bashorat qilinuvchanlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" O'RQ-537-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/4329272>
2. Freshfields Bruckhaus Deringer. (2024). *A general introduction to public-private partnerships in Uzbekistan*. Lexology.
3. Grimsey, D., & Lewis, M. K. (2002). Evaluating the risks of public-private partnerships for infrastructure projects. *International Journal of Project Management*, 20(2), 107–118. [https://doi.org/10.1016/S0263-7863\(00\)00040-5](https://doi.org/10.1016/S0263-7863(00)00040-5)
4. International Finance Corporation. (2023). *IFC helps boost provision of cost-effective, energy-efficient power in Uzbekistan through landmark PPP*. <https://www.ifc.org>
5. World Bank. (2024). *Uzbekistan to build new solar plant and first battery energy storage system with World Bank Group support*. <https://www.worldbank.org>
6. Polackova, H. (1998). *Contingent government liabilities: A hidden risk for fiscal stability* (Policy Research Working Paper No. 1989). World Bank.
7. International Monetary Fund. (2024). *Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation* (IMF Country Report). <https://www.imf.org>
8. World Bank, & International Monetary Fund. (2024). *Uzbekistan: Joint World Bank–IMF Debt Sustainability Analysis*. <https://documents1.worldbank.org>
9. International Monetary Fund, & World Bank. (2019). *PPP Fiscal Risk Assessment Model (PFRAM 2.0): User Manual*. <https://www.imf.org/external/np/fad/publicinvestment/pdf/PFRAM2.pdf>
10. International Organization for Standardization. (2018). *ISO 31000:2018. Risk management — Guidelines*. ISO.
11. World Bank. (2019). *PPP Risk Allocation Tool* (2019 ed.). <https://ppp.worldbank.org>
12. Osei-Kyei, R., & Chan, A. P. C. (2015). Review of studies on the critical success factors for public-private partnership (PPP) projects (1990–2013). *International Journal of Project Management*, 33(6), 1335–1346. <https://doi.org/10.1016/j.ijproman.2015.03.004>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>